

12. Kubaeva M. B. Q. THE USE OF VISUAL TECHNOLOGIES OF EDUCATION IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – Т. 2. – №. 06. – С. 6-10.
13. М Кубаева Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishda vizual texnologiyalarning o’rni // in Library 2021 (1), 102-105
1. М Кубаева Важность экосистемного образования для дошкольников// in Library 2022 (4), 921-926
2. <http://library.zionet.uz>
3. <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/103003/18.Mavzu.Qobiliyat.htm>

YOSHLAR MA’NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY IJTIMOIY- FALSAFIY QARASHLARINING O’RNI.

**Ochilova Maftuna Shuxratovna
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti**

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning asarlarida yoshlarning dunyoqarashini shakllanitrishdagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar tahlil etilgan. Insonni o’zini anglashi uchun zarur bo’lgan ilm, ma’rifat, ma’naviy-axloqiy masalalar falsafiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so’zlar: iymon, axloq, investitsiya, nafs, ma’naviyat, hadis, pandnomma.

ПРИМЕР СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ АЛИШЕРА НАВОИ В РАЗВИТИИ ДУХОВНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: в данной статье анализируются социально-философские взгляды молодежи в творчестве Алишера Навои. Философски освещены наука, просвещение, духовно-нравственные вопросы, необходимые для самореализации человека.

Ключевые слова: вера, мораль, вложение, желание, смысл, хадис, панднама

THE EXAMPLE OF ALISHER NAVOI’S SOCIAL PHILOSOPHICAL VIEWS IN THE DEVELOPMENT OF THE SPIRITUAL WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE

Abstract: this article analyzes the socio-philosophical views of young people in the works of Alisher Navoi. Science, enlightenment, spiritual and moral issues necessary for human self-realization are covered philosophically.

Key words: faith, morality, investment, desire, meaning, hadith, pandnama.

Alisher Navoiyning merosi ko‘plab olimlar tadqiqotlarining katta va muhim obyekti bo‘lib qolmoqda. Mutafakkirning oljanob g‘oyalari va ilhombaxsh asarlari tinchlik va insoniyat taraqqiyotida hamkorlikni mustahkamlashga ko‘maklashmoqda. Navoiyning ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari yoshlar ma’naviy dunyoqarashining rivojlanishida, bugungi kun bilan hamohangligi bilan hozirgi globallashuv zamonida kuchli gumanistik ahamiyatga ega. “BMT”ning Yoshlar strategiyasi”da ta’kidlanganidek, “yoshlar siyosida eng qimmatli va o‘ta muhim resurslar mujassamtopgan bo‘lib, unga har qancha investitsiya kiritsa arziydi, chunki bu sarmoyalar bir necha barobar bo‘lib ziyoda bo‘lib qaytadi.” Prezidentimiz SH.M.Miromonovich yosh-avlod haqida shunday deydi: “**Meni o`ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu-yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so`z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog`liq**”[1]. Darhaqiqat, yoshlar masalasi bugun har qachongidan ham dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Alisher Navoiy asarlarida esa ayni shu masalalarda fikr yuritiladi. “Mahbub ul-qulub” asarida Alisher Navoiy odam va odamiylik haqida, chin insoniy fazilatlar to‘g‘risida asrlar mobaynida xalq tajribasi va bilimi haqida yig‘ilgan fikrlarni bayon etadi. Ushbu asarda shoir o‘zining ijtimoiy g‘oyalarini ilgari suradi, chuqurlashtiradi, yangi dalillar bilan isbotlaydi.

Yigitlig‘da yig‘ ilmning maxzani,
Qarilig‘ chog‘i xarj qilg‘il ani [2].

Navoiy inson ma’naviy dunyosini boyitish uchun, eng avvalo, o‘zini anglashi zarur deb hisoblaydi. Ushbu yo‘lda quyidagi amallarga bo‘ysinishi lozim: birinchidan, nafsiy quvvatlarni ma’naviy quvvatlarga bo‘ysindirishi; ikkinchidan, ilm olishi va hunar egallashi; uchinchidan, ilm, hunar, mol-dunyosini ezgulikka yo‘naltirishi; to‘rtinchidan, ko‘nglini insondagi go‘zallik bilan boy ettirishi.

Chun ketti yigitlik-u uzoldi qariliq,
Damsovudi, ya’ni qolmadni qon ham isiq.
Og‘zig‘a hayot sharbati bo‘ldi achig‘,
O‘lmog‘ xushroqki, umr bu nav’ qattiq [3].

Yuqoridagi hikmat orqali umr o‘tkinchiligi, har daqqaq g`animat ekanligi uni qadrlash lozimligi ta’kidlanadi. Ilm olish payida bo‘lish kerakligi, zotan ilm inson umrini yorituvchi mash’ala ekanligi yodda tutish, hayot sharobini shirin qilish uchun har damni g`nimat bilish, Haqni tanish haqidagi falsafiy mulohazalarini bayon etadi. “**Ilmni qadrlang, ilmga intiling!**”[4]. deb davlat rahbarimiz ham bot-bot ma’ruzalarida bejizga aytib o‘tmayaptilar.

Iymong‘a erur nishon hayo birla adab,
Hurmat bila ta’zim saodatqa sabab.
Hayo-vu muaddab angakim, bo‘lsa laqab,
Maqsudig‘a kech yetsa ajab, angla ajab [5].

Inson tarbiya jarayonida yaxshi xulq-atvorga, odatlarga va aql-farosat omillariga ega bo‘lgan bo‘lsa, hayot saboqlarini shunchalik yaxshi anglaydi va yaxshi ishlarni amalga oshiradi, va aksincha, qanchalik tarbiyasi kam, hayotiy

ko‘nikmalari oz bo‘lsa, bunday shaxs ba’zan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qo‘l uradi. Tarbiyaning ikki asosi bor: fazilatni qo‘riqlaydigan go‘zal axloq va yaramas yo‘ldan, yomon ahvolga tushishdan saqlaydigan hushyorlik. Ota farzandini dunyo olovidan qanchalik himoya qilsa, oxirat olovidan undan-da ko‘proq himoya qilmog‘i kerak. Odob-u tarbiya vositasida yaxshi xulqlarni o‘rgatish, yomonliklardan qaytarish, to‘kin-sochinlikka odatlantirmaslik, ziynatga muhabbat uyg‘otmaslik bilan ota farzandini oxirat olovidan asraydi. Bunday kishilar maqsadiga tez yetadigan shaxslar bo‘lib yetishadi. Farzand tarbiyasi qanchalik erta boshlansa, tarbiya natijasi shunchalik samarali bo‘ladi. Chunki erta yoshda ularni yaxshilik tomon burish osonlik bilan kechadi. Tarbiyasizlikdan vujudga kelgan yomon xulq va odatlarni keyinchalik qayta tarbiyalash yo‘li bilan tuzatish mumkin. Ammo buning uchun ko‘p mehnat sarf qilishga to‘g‘ri keladi. Shunday ekan, kelajak avlodni “Qur‘on”, hadis, shuningdek pandnomma ruhida yozilgan asarlar asosida tarbilab voyaga yetkazish muhimdir. Bu xususida Alisher Navoiy asarlari bizga asosiy manbalardan biri sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. "O‘zbekiston" nashriyoti. Toshkent, 2021, 257-bet.
2. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 8-jild. Toshkent, 2013, 602-bet.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 9-jild, Toshkent, 2013, 536-bet.
4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. "O‘zbekiston" nashriyoti. Toshkent-2021, 256-bet.
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 9-jild, Toshkent, 2013, 531-bet.

BO'LAJAK O'QITUVCHINING TA'LIM MUASSASASIGA QO'YILGAN ILK QADAMI

M.A.Jumayeva

**Navoiy davlat pedagogika instituti, Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasи
dots.v.b. (PhD), Muxammatova Dinara Navoiy davlat Pedagogika instituti
talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada amaliyot davrida talabalar innovatsion faoliyatga kirishishlari , amaliyotchi talabaning dastlabki qadamlari hamda,talaba dastlabki pedagogik faoliyati davridagi quvonch yoki qiyinchiliklar maktab jamoasi va oliy o‘quv yurtining hamkorligiga ham ko‘p jihatdan bog‘liqligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: axborot-resurs, o‘quv-tarbiya,malaka,ko‘nikma.